

## INNOVATSION FAOLIYATDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

**Rayimov Shukurullo Karimovich**

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti  
Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari  
nomzodi, dotsent

### ANNOTATSIYA

*Maqolada yosh o‘qituvchilarning mahorati innovatsion faoliyatiga oid pedagogik qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash hamda kafolatlangan natijaga erishish uchun muhim pedagogik strategiya sifatida baholangan. Pedagogik tashxis orqali aniqlangan qiyinchiliklarni bartaraf qilish, o‘quv jarayonini optimal tashkil qilish yo‘llari to‘g‘risida mulohazalar yuritilgan.*

*Kalit so‘zlar. innovatsion faoliyat, pedagogik qiyinchilik, strategiya, pedagogik tashxis, amaliy vazifa, kafolatlangan natija, texnologik qo‘llanmalar.*

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается вопрос своевременного выявления педагогических трудностей в инновационной деятельности как грани мастерства молодых преподавателей, оценивается важная педагогическая стратегия достижения гарантированного результата. Высказываются мнения об устранении выявленных трудностей и пути оптимальной организации учебного процесса с помощью установления педагогического диагноза.

**Ключевые слова:** инновационная деятельность, педагогическая трудность, стратегия, педагогический диагноз, практическое задание, гарантированный результат, технологические навыки.

### KIRISH

Ma’lumki, har bir millat tarix va zamon voqealarining faol ishtirokchisiga aylanar ekan, uning jahon sivilizatsiyasi yoki mamlakatdagi mavqei va obro‘-e’tibori doimo bilimli yoshlар salohiyatiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham mamlakat kelajagi, undagi ta’lim tizimining rivojlanganlik darjasи zamiridagi eng asosiy o‘lchovlaridan biri yosh o‘qituvchilar faoliyati samarasidir.

Uzluksiz ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida ko‘ngildagidek o‘qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo‘lgan yosh o‘qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta’kidlash lozim.

Pedagogik mahorat tug‘ma iste’dod yoki nasldan naslga o‘tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o‘qituvchilar uchun standart, ya’ni bir qolipdagilish usuli hisoblanmay, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida izlanishi, ijodiy mehnati davomida shakllanadi va rivojlanadi.

Bu o‘rinda ilg‘or o‘qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o‘qituvchi o‘rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o‘z faoliyatini ilg‘or tajribalar bilan boyitishi zarur. O‘qituvchining pedagogik mahorati, asosan, sinfda, auditoriya mashg‘ulotlarida yaqqol ko‘rinadi. Chunki o‘quv mashg‘ulotlari o‘zining mazmun va mohiyatiga ko‘ra o‘qituvchining o‘quv yurtidagi asosiy ishidir. Shuning uchun u ilmiy g‘oyaviy jihatdan yetuk va ommabop bo‘lishi, turmush bilan, o‘quvchi yoki kursantlarning tayyorgarlik darajasi bilan uzviy aloqador bo‘lishi zarur.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi bilan kursantlar o‘rtasida o‘zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim. Masmuni sayoz, harbiy qismlardagi amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so‘z, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lgan, rasmiyat uchun yuzaki o‘tkaziladigan dars (ma’ruza) va boshqa o‘quv mashg‘ulotlari kursantlar va tinglovchilarni qiziqtirmaydi, ularni ilmiy, g‘oyaviy jihatdan yetarli darajada oziqlantirmaydi. Shu sababli, darslarni shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta’sirida kursantlarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e’tiqodlar vujudga kelishi hamda shakllanishi kerak.

Pedagogika fanida jamoaning innovatsion salohiyatini baholashga doir yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orasida diagnostik yondashuv keng tarqalgan. Diagnostik yondashuvni amalga oshirish aniq belgilangan mezonlar asosida jamoaning rivojlanganlik darajasini tashxis etish va tahlil qilish hamda innovatsion faoliyatga ta’sir etuvchi omillarni baholashni talab etadi.

Pedagogik qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash muhim muammo bo‘lib, ularni hal qilmasdan o‘qituvchi faoliyatini takomillashtirishga erishish qiyin. O‘z vaqtida yechilmagan muammolar xatolarga olib keladi va ta’lim-tarbiya sifati hamda o‘qituvchi ishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatib o‘tish mumkin:

pedagog-kadrlarning ijod qilishi uchun erkinlikning taqdim etilganligi;

novator pedagoglarning resurslar bilan ta’minlanishining rahbariyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi;

jamoada munozara va fikrlar almashinuvining faol yo‘lga qo‘yilganligi;

kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga ishtiyoqning rag‘batlantirilganligi; pedagogning o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun imkoniyatlarning taqdim etilishi; yuqori darajadagi axboriy ta’minotning yo‘lga qo‘yilganligi; o‘zgarishlar argumentatsiyasining asoslanganligi; harbiy jamoada ishonch va o‘zaro bir-biriga yordam berish jarayonining qo‘llab-quvvatlanishi.

Innovatsion muhit sharoitida yuzaga kelayotgan pedagogikaning dolzARB muammolaridan biri – bu, o‘qituvchi faoliyatida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar bo‘lib, mazkur muammoning hal qilinmasligi quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

pedagogning o‘z ishidan qoniqmasligi;  
pedagogik mehnat samaradorligining pasayishi;  
psixik zo‘riqishning kuchayib borishi;  
kasbiy deformatsiyalarning to‘planib borishi va boshqalar.

Pedagogik tashxis yakka, guruh va jamoada o‘qituvchilar kasbiy mahoratini o‘rganishning metod va vositalar tizimi sifatida pedagogik qiyinchiliklarni aniqlash, mohiyatini anglash va ularni bartaraf qilishning ta’sirchan yo‘llarini topishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda, pedagogik tashxis o‘qituvchi ishidagi kuchli va kuchsiz jihatlarni aniqlash, ijobiy tomonlarini o‘sirish va mustahkamlash yo‘llarini belgilashga ham imkon beradi. Pedagogik tashxis pedagoglar malakasini oshirish jarayonida bir-biriga qarama-qarshi ijobiy va salbiy tomonlarni aniqlashga xizmat qilib, ularning oliy asab faoliyati, xarakter xislati, pedagogik yo‘nalganligi, qaysi qadriyatlarga intilishi haqida ham ma’lumot olish imkoniyatini beradi. Shu asosda pedagogik tashxis, bir tomondan, o‘qituvchi faoliyatining bo‘sh, kuchsiz jihatlarini aniqlasa, ikkinchi tomondan, aniqlangan qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo‘llarini izlash imkoniyatini beradi. Pedagogik tashxis o‘qituvchi faoliyatiga aniqlik kiritib, uni ta’lim-tarbiyaning yechilmagan amaliy vazifalarini hal qilishga undab, o‘quv jarayonini optimal tashkil qilishga zamin hozirlaydi [1].

O‘qituvchi pedagogik faoliyatining murakkab va ko‘p qirraliligi hamda muttasil o‘zgarib turishi yangidan-yangi paydo bo‘luvchi qiyinchiliklarni darhol payqashdan chalg‘itganday bo‘ladi. Bu esa o‘qituvchini uzluksiz ravishda son-sanoqsiz kasbiy vazifalarini yechishga undaydi, ularga pedagogik kasbiy holatining tarkibiy birligi tarzida qarashni taqozo qiladi.

Uzoq vaqt o‘qituvchilarning xizmat tajribasini o‘rganishimiz natijalari ko‘rsatdiki, ular faoliyatida pedagogik qiyinchiliklarning paydo bo‘lish sabablaridan biri aniq pedagogik, o‘quv vazifalarini yechayotganda nazariy bilimlar va harbiy qismlardagi tajribadan foydalana olmaslidadir. Bu o‘qituvchining mavjud

bilimlaridan amalda foydalana olmasligini ko'rsatadi. Undan o'rinli foydalanish, farqlash jarayoni va nazariy bilimni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarining rivojlanganligi bilan ham bog'liqdir.

Pedagogik qiyinchiliklarni bartaraf qilishda eng muhim narsa yangilikka intilish, o'z fanini va mutaxasisligini sevish, keng ilmiy nazariy saviya ekanligidan kelib chiqib, o'qituvchi ularni doimiy izlanish, o'z fani, pedagogika, psixologiya, o'qitish metodikasini chuqur bilishi orqali bartaraf etishi mumkin [2]. Yosh o'qituvchilarining faoliyatida tez-tez ro'y beradigan pedagogik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun pedagogik tajribaga boy bo'lgan, ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega bo'lgan ofitserlarni maslahati bilan birgalikda o'z-o'zini tahlil qilish metodikasini o'rganishi alohida ahamiyatga egadir.

Mahoratlari ofitser-o'qituvchilar uchun qiyinchiliklar innovatsion to'siqlarni yengib o'tish bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatdagi to'sqinliklar ko'pincha pedagog faoliyatini chegaralab qo'yish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mazkur tipologiya bilan bog'liqlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hal etishda bir yoki bir necha strategiyani qo'llash maqsadga muvofiq. Masalan, yosh o'qituvchilar faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklar eng avvalo, ularning kasbiy rivojlanishi bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishi, kasbiy faoliyat bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni hal etishda ularni psixologik qo'llab-quvvatlash, o'z-o'ziga ishonch, mas'uliyatni qaror toptirish, shuningdek, o'zgaruvchan vaziyatlarda muvafaqqiyatlari harakatlana olish strategiyalarini talab etadi.

Pedagogik qiyinchiliklarni aniqlashning professiografik metodikasini ishlab chiqish, o'qituvchilar uchun o'z vaqtida va uzlusiz ularni aniqlash va kasbiy qiyinchiliklarni bartaraf qilish, o'z faoliyatini maqsadga muvofiq o'rganish va takomillashtirish assolarini yaratish lozimligini ko'rsatdi. Buning uchun o'qituvchiga har bir muayyan faoliyatni aniqlash, unga tayyorlanish, amalga oshirish, hosil bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo'llarini o'zida aks ettirgan metodika zarur [3].

Texnologiyalar yordamida pedagogik qiyinchiliklarni aniqlash, pedagogik faoliyatga endi qadam bosgan ofitserlar uchun o'z faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etishga oid elektron amaliy qo'llanmalar Amerika va G'arb davlatlarida juda ommalashgan bo'lib, ularning vazifasi dars jarayonini yanada samarali tashkil etishdan iboratdir. Bu texnologik, axborot-kommunikatsion qo'llanmalar ofitser-o'qituvchi va kursantlar uchun bilim olishda keng imkoniyatlar yaratish bilan birga kursantlarga dars berish jarayonida yordam beradi va uning yanada qiziq olib borilishiga zamin yaratadi [4].

1. Better Lesson (Yaxshiroq dars). Better Lesson ofitser-o'qituvchilarga darslarni imkonli boricha foydali olib borish uchun yordam beradi.

Darslar ularni qanday olib borish kerakligini tushuntiruvchi izohlar bilan yozilgan. Bunga qo'shimcha tarzda ustoz-o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan videolavhalar ham mavjud. O'qituvchilar uchun mo'ljallangan, ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lgan eng foydali qo'llanmalardan biridir.

2. GradeBook Pro (Sinovlar daftarchasi). GradeBook Pro ofitser-o'qituvchilarga auditoriyani boshqarishda yordam beruvchi eng yaxshi ilovalardan biridir. Ilovaning eng asosiy xususiyatlaridan biri, o'qituvchilar undan kursantlar diqqatini tekshirish maqsadida foydalanishlari mumkin.

Ilovaning eng foydali qismi shundan iboratki, o'qituvchilar yil davomida har bir kursantga erishayotgan muvaffaqiyati bo'yicha alohida izohlar yozishi mumkin, bu esdalik uchun juda qulay.

3. FineTune (Mukammal sozlov). FineTune kursantga yozish ko'nikmalarini oshirishda yordam beradi. O'qituvchilar namunaviy insholarni boshqa tajribali o'qituvchilar belgilagan reytinglar orqali baholashlari mumkin.

Yozuv juda muhim ko'nikma bo'lib, mazkur ilova tomonidan taklif etilayotgan eng yaxshi imkoniyatdir. Unda yana an'anaviy bo'lмаган – tarix va ilm-fan darslari ham bor.

4. TooNoisy (Juda shovqin). TooNoisy shovqinli auditoriyani xushlamaydigan ofitser-o'qituvchilar uchun a'lo darajadagi ilovadir. Bu ilova pedagoglarga auditoriyada shovqin qay darajada bo'lishi kerakligini aniqlashga yordam beradi, agar u belgilanganidan ortiqcha bo'lib ketsa, qo'ng'iroq chalinadi. Bu sinfni o'qituvchi tomonidan tinch holda ushlash uchun yaxshi usuldir.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joyizki, pedagogik faoliyatga endi qadam bosgan ofitserlar uchun texnologiyalar yordamida o'z faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etishga oid amaliy ko'rsatmalar berildi. Ushbu ko'rsatmalarning asosiy vazifasi ofitser-o'qituvchi va kursantlar uchun bilim olishda keng imkoniyatlar yaratish bilan birga kursantlarga dars berish jarayonida yordam beradi va uning yanada qiziqarli olib borilishiga zamin yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азизходжаева, Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2006. - 246 б.
2. Rayimov, Sh.K. “Ofitser-o'qituvchining metodik tayyorgarligini shakllantirish asoslari”. Darslik. - Toshkent: O'R QK Akademiyasi, 2021. - 168 b.

3. Ишмухамедов, Р.Ж., Райимов, Ш.К. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. Услубий қўлланма. – Т.: “ТОУҚБЮ”, 2013. - 85 b.
4. Heckhausen, H. Motivation und Handeln. Berlin: Springer, 2011. - 244 p.